

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING AHAMIYATI

S.A. Abdullayev

Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ahamiyati, mazmun mohiyati, faoliyatlarda qo‘llaniladigan usullar haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tabiat, muhit, pedagogik-psixologik, mexanizmlar, bilimlar, malakalar, tajriba, kognitiv.

АННОТАЦИЯ

В статье описывается важность знакомства дошкольников с природой, сущность содержания, используемые в деятельности методы.

Ключевые слова: природа, среда, педагогико-психологические, механизмы, знания, умения, опыт, познавательные.

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida inson qalbini kichiklikdan boshlab yaxshilik, oljanob, insonparvarlik, odamgarchilik, poklik, so‘zamollik, xushso‘zlik, ilmli bo‘lish kabi oliy janob hislatlar bilan boyitish inson kamolotining me’yori bo‘lib kelgan, chunki komil insonning ma’naviyati yuksak bo‘ladi, yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan kishi esa, o‘z xalqining o‘tmish tarixi, urf-odati, qadriyati va an’analari, madaniyatini chiqroq biladi, unga rioya qiladi

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni ma’naviy yetuk, axloqli, pok insonlar qilib voyaga yetkazishda tabiat bilan tanishtirish muhim ahmiyat kasb etadi. Uning maqsadi, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lish, Vatanga mehrli bo‘lish, ekologik ta’lim tarbiyani amalga oshirish, tabiat haqida mukammal bilimga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda bolalarning yosh xususiyatlari, fizioiogik tuzilishlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Shu bilan birga turli yosh guruhlarda ularning qiziqishlari, qobiliyatlar, ehtiyojlari, xarakter hislatlari, iste’dodlari hisobga olinadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama kamol toptirish va tarbiyalash turli omillar asosida amalga oshiriladi. Buning eng samaralisi maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishdir. Sababi inson go‘dakligidanoq tabiat qoynida

o'sadi, ulg'ayadi kamol topadi. Bolani go'dakligidan boshlab tabiatdan zavq olishga. tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatib borishimiz zarur.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning mazmuni va uni tanlash tamoyillariga alohida e'tibor beriladi. Ekologik ta'lim-tarbiya tizimi asoslariga tabiat yaxlitligi hamda atrof muhitning inson tomonidan o'zgartirilishi haqidagi tasavvurlar qo'yilgan. Bunda tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni oliy o'quv yurtlarida hozirgi zamon ommaviy axborot vositalaridagi uzluksiz jarayon sifatida qaraladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning jarayoni har tomonlama rivojlangan shaxs ma'naviy qiyofasini kamol topish jarayonining muhim va tarkibiy qismidir. U Bolalarda milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida tabiatga ongli munosabat, tabiat zaxiralarini saqlash va ko'paytirishga oid mas'uliyat tuyg'usi, ekologik muammolarni amaliy hal qilishdagi ko'nikmalarning rivojlantirilishini o'zida qamrab oladi.

Tabiatga muhabbat, unga ehtiyyotkorlik munosabatini, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlikni tarbiyalash va shular orqali tabiatga qiziqish, vatanparavarlik, mehnatsevarlik, tabiatni saqlovchi va uning boyliklarini ko'paytiruvchi, kattalarning mehnatiga hurmatni tarbiyalash kabi vazifalarni amalga oshirishda tabiat burchagining ahamiyati kattadir.

Tabiat burchagining muhim tomoni yana shundaki, uni bolalar har kuni ko'radilar. Tarbiyachi rahbarligida bolalar tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni sistemali ravishda kuzatib va parvarish qilib boradilar, natijada o'simlik va hayvonot dunyosining rang-barangligi, ularning o'sishi va rivojlanishi, ular uchun qanday shart-sharoitlar kerakligi to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni egallab boradilar.

Tarbiyachi bolalar diqqatini o'simliklarning chiroyli gullashiga, barglarining shakli va tusiga, akvariumdagи baliqlarning chiroyli ko'rinishiga va chaqqon harakatiga jalb etadi. Natijada bolalar bu go'zallikdan quvonishga o'rganadilar hamda ularning estetik didi o'sadi.

Bolalar tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni tarbiyachi rahbarligida sistemali ravishda kuzatib, parvarish qilib borishlari natijasida ma'lum malaka va ko'nikmalarni ham egallab boradilar, ularga nisbatan barqaror qiziqish va g'amxo'rlik hissi uyg'onadi. Bolalarning tabiatga mehr-muhabbatini o'simliklar va hayvonlarni parvarish qilish, ularni asrab-avaylash bo'yicha mehnat faoliyatlarini tashkil etish bilan birga qo'shib olib borish kerak. Tarbiyachi bolalarni tabiat bilan tanishtirish ishini ularning yosh xususiyatlari, pedagogik, fiziologik imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda tashkil etadi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish faoliyatları bolalarning imkoniyatlari xamda ularni o'rab turgan tabiatning xussiyatlarini nazarda tutgan xolda izchil shakllantirish imkonini beradi. Tarbiyachi raxbarligida olib boriladigan faoliyatlarda guruhning

barcha bolalarida dastur talablariga muvofik elementar bilimlar shakllanadi. Asosiy bilim jarayonlari va bolalarning qobiliyatları ma'lum sistema xamda izchillikda o'stiriladi. Kundalik hayotda kuzatish, o'yin, mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yigilib boriladi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish faoliyatlarining ta'limiy maqsadi bu bolalarga faoliyatlarda berilish yoki aniqlanishi xamda konkretlashtirilishi lozim bo'lgan bilim xajmidir. Bunga yana bolalarning tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishni kiritish mumkin. Faoliyatga tayyorlanish hamda uni o'tkazishda faoliyatning tuzilishi metodini to'g'ri aniqlash muhimdir. Metodni tanlash ta'limiy vazifalar xarakteri, tabiiy ob'ektning xususiyatlari, xamda bolalarning yoshiga bog'liqdir. Faoliyat davomida topshiriqni bajarishga barcha bolalarni jalb qilish muhimdir.

Maktabgacha talim tashkilotida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida xilma-xil metodlar: ko'rgazmali (kuzatish, rasmlarni ko'rish, diafilm va kinofilmlarni namoyish qilish), amaliy (o'yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar), ogzaki (tarbiyachining xikoyasi, badiiy asarlarni o'qish, suhbat) metodlaridan va xilma-xil formalardan: mashgulotlardan ekskursiyalardan kundalik hayotga mehnatdan kuzatishlardan uchastka va tabiat burchagidan o'yinlardan foydalaniladi. Natijada bolalarda bilimlarni egallash malaka va ko'nikmalarni xosil qilish qobiliyatlarini o'stirish ilmiy dunyoqarashlarni axloqiy sifatlarini xulq atvorlarini shakllantirishga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. SA Abdullayev "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING AHAMIYATI" Educational Research in Universal Sciences 2(4) 1168-1171 2023.6.16 <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3036>
2. Abdullayev , S. . (2022). A MODERN APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF RESEARCH ACTIVITY IN PRESCHOOL CHILDREN. International Bulletin of Engineering and Technology, 2(11), 25–26. Retrieved from <https://internationalbulletins.com/intjour/index.php/ibet/article/view/143>
3. SA Abdullayev "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING AHAMIYATI" Educational Research in Universal Sciences 1168-1171 2023/6/16 <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3036>
4. AS Abdurashidovich "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV" Tadqiqotlar. 96-102 2023/4/7
5. MI qizi Umarova "PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF CHILDREN'S PHYSICAL AND MENTAL

- DEVELOPMENT IN RULED GAMES” Educational Research in Universal Sciences, 295-297 2023.5.24 <http://erus.uz/index.php/er/article/view/2352>
6. M Umarova, A Ro‘ziyeva “MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TASVIRIY FAOLIYATNING AHAMIYATI” Наука и инновация, 2023 1(6), 33–35 <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/14283>
7. MI qizi Umarova “RIVOJLANTIRUVCHI O ‘YIN TEXNOLOGIYASI VA UNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY VA RUHIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI” Educational Research in Universal Sciences, 1172-1176 2023.6.16 <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3037>
8. MI kizi Umarova “DEVELOPMENTAL GAME TECHNOLOGY AND ITS IMPORTANCE IN THE PHYSICAL AND MENTAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN” Educational Research in Universal Sciences 196-198 2023.7.27 <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3368>
9. MI qizi Umarova “QOIDALI O‘YIN MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING UYG ‘UN RIVOJLANISHI VOSITASI SIFATIDA” Educational Research in Universal Sciences 193-195 2023.7.27 <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3366>